



## MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI TARBIYALASHDA ERTAKLARNING AHAMIYATI

*Rejabova Namunaxon*

*Qo'qon davlat pedagogika instituti o`qituvchisi*

*Asqaraliyeva Sevinch, Narimonova Shaxnoza*

*Qo'qon davlat pedagogika instituti talabalari*

Ma'lumki, o'sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalash va bilim berishda bugungi kun pedagog-tarbiyachining mahorati, mehnati, o'z kasbiga bo'lgan qiziqishi, o'z ustida doimiy ravishda izlanishda bo'lishiga yangiliklarni imkon qadar tez o'zlashtirib borishini taqozo etmoqda. Bundan ko'rinish turibdiki, kelajagimiz bo'lgan yosh avlodni ishonchli qo'llarda talim-tarbiya olib kamol topishida maktabgacha talim tashkilotlari pedagog-tarbiyachilari va mutaxassislarini bolajonlarimizni bilimli va aqilli komil inson bo'lib tarbiyalashlariga ishonchimiz kattadir.

Bugungi davr talablaridan kelib chiqqan holda ta'lim-tarbiya berish murakkab va masuliyatli jarayondir. Ta'lim-tarbiyaning yangi usulini qo'llashdan avval, biz ortga nazar tashlashimiz mumkin. Bizning ota-bobolarimizdan qolgan tarbiya berishning qulay va oson usullaridan foydalanish bugungi kunda biroz eskirgandek. Lekin natijasini kuzatilganda yuqori darajada ekanligi isbotlangan. Bolajonlarimizni tarbiyalab ularga ibratli ertaklar va hikoyalar orqali bilim berishning qulay va natijali usuli bu yertak terapeyaside.

Pedagog-tarbiyachilar bolalarning yosh hususiyatlariga ko'ra kamida 40 dan ortiq ertakni bilishlari lozim. Negaki bolajonlarga bir ertakni qayta-qayta eshitish juda zerikarlidir, bundan tashqari vaziyatdan kelib chiqib, kichik va namunali ertaklar to'qish mahorati tarbiyachi pedagoglarga hos xarakter hisoblanadi. Ayni damda pedagoglarni kasbiy malakasini oshirish ham pedagoglarning mahoratlarini mustahkamlash, bilimlarini oshirishga qaratilgan jarayondir. Har besh yilda pedagogtarbiyachilar malaka oshirish orqali bilim, ko'nikma va malakalarini oshirish orqali o'z ustilarida ishslash imkoniga ega bo'ladilar. Bolalarning o'zligini anglatish, tabiatga bo'lgan qiziqishlari, odob-axloq tushunchalari, do'stlari va tengdoshlari bilan munosabatlari, kattalar bilan muloqot qilish, hurmat tushunchasini singdirish, ota-onani sevish, vataniga sadoqatli ruxda tarbiyalash, bilim olishga qiziqtirish, manaviyatini boyitib borishda avvalo kitobning o'rni beqiyosdir. Milliy ertaklarimiz xalq og'zaki ijodiyoti va o'zimiz tomonimizdan to'qilgan to'qima ertaklar bola tarbiyasida katta ahamiyatga ega. Bolalar bilan ko'proq muloqot qilishning, bolalar nutqining rivojlanishi ham ertaklar orqali olib borilishi katta natijalarga erishilishini ko'rsatmoqda.

Bolajonlarimiz xali dunyoni to'liq anglamagan bo'lishsada, ertaklar tinglashni juda hohlashar ekan. Ertaklarni bolalar yoshiga mos tarzda tashkil qilish bu, pedagogning mahoratiga bog'liqdir. Kichik yoshdagi bolalar uchun qisqa va qiziqarli ertaklar bolalar ruxiyatini tarbiyalashda muhim vosita hisoblanadi. Ertaklarni bolalar yoshiga mos tanlash ham bir sanatdir. Ertaklarni tanlash, ravon nutq bilan so'zlab bera olish, ovz to'nini shu qaxramon ovoziga taqlid qilish bilan ayta olish, bolalar histuyg'ularini hisobga olgan holda so'zlash, rasmlardan foydalanish, qo'g'irchoqlardan foydalanish, interaktiv doskalardan foydalanish va xokazolar bolalarni o'ziga tortadi va tinglashni o'rgatadi.

Ertaklarni shoshmasdan mazmunli o'qib berish va bolalarning savollarini va fikirlarini ertak bilan uyg'unlashtirish talab etiladi. Oddiygina ertakni turli usullarda turli aytish mumkin, lekin bolalarni qiziqtirish usulini aniq bilib, olish talab qilinadi. Bolalar nafaqat ertakni tinglaydilar balki, ertakdan o'zlariga yoqqan yoki ijobiy qahramonlarni ham tanlaydilar. Bolajonlar ertaklarni tinglabgina qolmay, salbiy va ijobiy qahramonlarni farqlab, ularni obrazlariga kirishishga intiladilar, bu esa pedagogning



yutug‘idir demak bola ertakni tinglash orqali muloxaza qilishga ham ulgurganligi belgisidir. Ayrim pedagoglarda ertak aytib berishga xohish-istaklari yo‘qligini va bolalarni ertaklarga qiziqtirib aytib bermasligi mumkin.Bunda bolalarning ertak tinglashda oladigan ozuqa o‘rniga boshqa bekorchi narsalarga sarflashi mumkin.

Bolalarning kunduzgi uyqu soatlarida ertak tinglashga o‘rgatish orqali ularni uyqu soatlarini ham mazmunli tashkil etishga erishiladi. Pedagoglar ertak terapeyясini tarbiyalanuvchilarning ota-onalari bilan ishlaganlarida ham, uy sharoitida bolalar bilan ertaklar o‘qib berish yoki aytib berishni yo‘lga qo‘yishlari lozim.Ertaklar bolalarda albatta yaxshi xislatlarni shakllanishiga va ularning xarakteriga aylanib ulgurgan qizg‘onchiqlik, yig‘loqilik, qo‘rroqlik, chaqimchilik, asabiylilik, odamovililik, fikri tarqoq,bolalarga qo‘shilolmaslik, o‘g‘irlilik, erkatoylilik kabi bir qator yomon odatlарini yaxshi odatlarga quvnoqlik, sho‘x, erkin, fikrini yetkazib bera olish kabi odatlarga almashtiradilar. Ertaklar doimiy xayotiy voqelikdan kelib chiqqan holda yoziladi.

Olimlarning fikricha hatto, katta yoshdagи 12-13 yoshli bolalarda ham ertaklarni tinglashga bo‘lgan ehtiyojlari yuqori ekanligini kuzatildi. Agar oilada ota-onalar tomonidan kitoblar o‘qilishini ko‘rgan va kuzatgan bola, kitoblarni o‘qishni bilmasa ham rasmiли kitoblarni ramga qarab to‘qima ertaklarni yaratadi. Bu holat otaonalar va pedagoglarning hamkorlikda ishslashda bola tarbiyasidagi katta yutuqlaridan biridir.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida <http://lex.uz//docs/-4327235>
2. <http://lex.uz//docs/-3805404> O‘zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagи bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablarini tasdiqlash haqida
3. Ilk qadam davlat o‘quv dasturi (takomillashtirilgan ikkinchi nashr) Toshkent 2022
4. Maktabhacha ta’lim va tarbiyaning davlat standarti 802-sonli Qaror.
5. G. Nazirova, МАКТАБГАЧА КАТТА ЁШДАГИ БОЛАЛАРДА ХАЛҚ ОҒЗАКИ ИЖОДИ ВОСИТАСИДА МИЛЛИЙ ФУРУР ҲИССИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ-ИЖТИМОИЙ ПЕДАГОГИК ЗАРУРИЯТ СИФАТИДА - Science and innovation, 2022
6. N.G. Malikovna, MG Bakhodirovna, EDUCATION OF CHILDREN IN THE SPIRIT OF PATRIOTISM AND FRIENDSHIP OF PEOPLES IN THE FAMILY.-International Journal of Early Childhood Special ..., 2022
7. Anvarovna, Sultonova Nurxon. "O’QUVCHILARDА XULQ-ATVOR SIFATLARINI SHAKLLANTIRISHDA XALQ OG’ZAKI IJODI VOSITALARIDAN FOYDALANISH." *Role of Exact and Natural Sciences During the Renaissance III* (2023): 94-98.
8. Anvarovna, Sultonova Nurxon, and Xalkuziyeva Dilnoza Baxodirovna. "PROBLEMS OF WORKING WITH PARENTS OF CHILDREN NOT INVOLVED IN PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS." *International Journal of Early Childhood Special Education* 15.1
9. Anvarovna, Sultonova Nurkhon. "Some Aspects of the Maria Montessori Method in the Education of Preschool Children." *INTERNATIONAL JOURNAL OF INCLUSIVE AND SUSTAINABLE EDUCATION* 1.6 (2022): 169-173. (2023).
10. [https://scholar.google.com/citations?view\\_op=view\\_citation&hl=ru&user=Rh71JaMAAAAJ&citation\\_for\\_view=Rh71JaMAAAAJ:YsMSGLbcyi4C](https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=Rh71JaMAAAAJ&citation_for_view=Rh71JaMAAAAJ:YsMSGLbcyi4C)
11. [https://scholar.google.com/citations?view\\_op=view\\_citation&hl=ru&user=Rh71JaMAAAAJ&citation\\_for\\_view=Rh71JaMAAAAJ:qjMakFHDy7sC](https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=Rh71JaMAAAAJ&citation_for_view=Rh71JaMAAAAJ:qjMakFHDy7sC)
12. [https://scholar.google.com/citations?view\\_op=view\\_citation&hl=ru&user=Rh71JaMAAAAJ&citation\\_for\\_view=Rh71JaMAAAAJ:UeHWp8X0CEIC](https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=Rh71JaMAAAAJ&citation_for_view=Rh71JaMAAAAJ:UeHWp8X0CEIC)